

IQBOL MIRZO SHE'RIYATI BADIYATI

Murodillayeva Madina Otabek qizi¹¹ NavDu 1-kurs magistiranti**Sharipova Raxima¹**¹ Ilmiy rahbar. NavDu, f.f.f.d (PhD)**MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 26.02.2025**Revised: 27.02.2025**Accepted: 28.02.2025*

Ushbu maqolada Iqbol Mirzoning o‘ziga xos uslubi, ijodining ohangdorligi va badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalanishi, she’riy san’atlarning o‘rinli qo‘llashi ochib berilgan.

KALIT SO’ZLAR:

ijodkor, sevgi-muhabbat, yor, oshiq, insoniy tuyg‘ular, ruju, talmeh, tazod, tashbeh, mubolag ‘a.

KIRISH. She’riyat inson qalbiga sokinlik, ruhiga huzur beruvchi tuyg‘ularni olib kelibgina qolmay, insonlar o‘rtasidagi samimiy va pok munosabatlarning mustahkamlanishida asosiy omil hisoblanadi. She’rning haqiqiy nola bo‘lib yurakda muhrlanishida ijodkorning uslubi, qo‘llaydigan badiiy tasvir vositalari va so‘z boyligi alohida ta’kidga loyiq. Iqbol Mirzo shoir sifatida ijodining uslubiy bo‘yoqdorligi va teran mushohadalarga boyligi bilan O‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega. Iqbol Mirzo she’riyatida ijtimoiy lirika va badiiy san’atlar o‘zgacha ma’no kasb etadi. Ijodkor she’riy san’atlardan ustalik bilan foydalanish orqali insoniy tuyg‘ularning asl mohiyatini she’riyat ixlosmandlarining ongiga singdirish bilan birga rang-baranglikka ham erisha olgan. Nazmda alohida ahamiyatga ega tashbeh san’ati Iqbol Mirzo ijodining jozibadorligiga xizmat qilgan. “Tashbeh - Sharq adabiyotida keng tarqalgan san’atlardan biri bo‘lib, “o‘xshatish” ma’nosini ifodalaydi. Ikki narsa yoki

tushunchani ular o'rtasidagi haqiqiy yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish hisoblanadi".⁷²

Soching buloq suvidek, barmog'im aro toshdi,
 Vujuding shamol kabi quchog'im aro toshdi.
 Hilolni chiltor etib, kipriklaring chaldi cholg'u,
 Yuragim selob bo'lib, qarog'im aro toshdi:
 "Ko'zimga ishonmayman, nahotki o'zingsan shu?!"⁷³

Muallifning bu she'rida tashbehni ajoyib qo'llash orqali oshiq yorining ta'rifi ni naqadar betakror ekanligini isbotlamoqchi bo'lganiga ishora borligini ko'rishimiz mumkin. Ma'shuqasining sochlarini buloq suviga majoziy tarzda o'xshatish, yoki uning vujudini shamol kabi tutqich bermasdan oshiqni hijron azoblariga solayotgani, sevgilisining husnda tengsizligi-yu, o'z muhabbatining cheksizligini ifodalashga xizmat qilgan.

Iqbol Mirzo she'riyati o'zining zamonaviy ruhi va takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Shoiring ishq-muhabbat mavzusidagi ijod namunalarida yor obrazini o'xshatishda istiora san'atiga murojaat etadi. "Istiora arabcha so'z bo'lib, "biror narsani omonatga olmoq" degan ma'noni ifodalab, adabiy asarda so'zni o'z ma'nosidan boshqa bir ma'noda, aniqrog'i haqiqiy ma'noda emas, majoziy ma'noda qo'llash hisoblanadi".⁷⁴

Qorako'z, qaldirg'ochoyimsan, o'zing,
 Ko'ksim ayvon bo'ldi, seni sog'inib.
 Ko'zimdan bir lahza ketmadi ko'zing,
 Ko'zim giryon bo'ldi, seni sog'inib.⁷⁵

"Seni sog'inib" she'rida "qorako'z", "qaldirg'ochoyim" so'zlarini orqali yorning tun kabi qora ko'zlarini va qaldirg'ochdek beozor ekanligini bayon qilgani ta'sirchanlikning oshishiga sabab bo'lgan. Sog'inchdan oshiqning ko'ksini ayvon bo'lishi "bo'rttirish", "kuchaytirish", ya'ni mubolag'aning ajoyib namunasini yuzaga

⁷² Anvar Hojiahmedov "She'riy san'atlarni bilasizmi" Sharq nashriyoti- 2001. 6-bet

⁷³ Iqbol Mirzo Sizni kuylayman Toshkent. Sharq, 2007 95-bet

⁷⁴ Anvar Hojiahmedov "She'riy san'atlarni bilasizmi". Sharq nashriyoti- 2001. 12-bet

⁷⁵ Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman.Toshkent.- Sharq, 2007. 9-bet

keltirgan. Misraning so‘nggida bu azob lirik qahramon ko‘zlarining orom topmasligi va sog‘inch uni ado qilishi bilan yakunlanadi.

Iqbol Mirzo she’riyatida ohanglar yetti xil emas, yetmish xil bo‘lib jilolanadi. Ko‘ngillarga yog‘du bo‘lib yog‘ilib, nur bo‘lib sekin mo‘ralaydi. Iqbol Mirzo ijodi haqida adabiyotshunos olim Umarali Normatov shunday yozadi: “Bir qarashda Iqbol she’rlari sho‘x-shodon, o‘ynoqi misralardan yaralganday tuyiladi, biroq ular zamiriga razm solsangiz, o‘sha sho‘x-shodon, o‘ynoqi misralar qanotida shoirning qalb tug‘yonlari, armon to‘la alamlı mushohadalari yog‘ilib turganligiga amin bo‘lasiz”.⁷⁶

Iqbol Mirzo so‘z takrorlaridan, ya’ni mukarrar san’ati vositasida uslubining o‘zgacha ekanligini isbotlagan. “Mukarrar so‘zi “qayta-qayta”, “ust-ustiga” ma’nolarini ifodalaydi. Shu nom bilan ataluvchi lafziy san’at esa baytning har ikki misrasida juft so‘zlarning qo‘llanishini nazarda tutadi”.⁷⁷

Qaydan kelayotir uyur-uyur g‘am,
 Qaydan kelayotir palaxsa hasrat?
 Qaydan yog‘ayotir shirg‘oqdek alam,
 Qaydan sizayotir laxta-laxta dard?⁷⁸

“Dard” she’ridagi “uyur-uyur”, “laxta-laxta” so‘zleri mukarrar san’atini yuzaga chiqargan. Ijodkor g‘am, dard qanchalik og‘ir yuk ekanligini, uni ko‘tarish insondan iroda, sabr, kuch talab etishini yorqin dalillagan.

Misralar boshida takrorlangan “qaydan” so‘zi uslubiy bo‘yoq dorlikni kuchaytirgan anafora san’atiga yorqin misol bo‘la oladi.

O‘zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo she’riyati jozibadorligi bilan tavsiflanadi. She’rlarida muallif tomonidan tanlangan badiiy vositalar ma’no nozikligini ko‘rsatishda asosiy omil bo‘lgan. Iqbol Mirzo she’riyati mazmunini ochishda, qahramonlar xususiyatini talqin etishda ko‘chma ma’no asosida yuzaga keluvchi vositalar muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, obrazlarning ta’rifi masalasida shoir sodda uslubdan va xalqona yondashuvdan kelib chiqib tafakkur qiladi.

Ajoyib qiz ekan-da,
 Qarashlari g‘alati.

⁷⁶ Umarali Normatov. Ijod sehri .Sharq, 2007. 144-bet

⁷⁷ Anvar Hojiahmedov. “She’riy san’atlarni bilasizmi” Sharq nashriyoti- 2001. 20-bet

⁷⁸ Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman.Toshkent. Sharq, 2007. 14-bet

Kulib turib yig‘laydi,
Yig‘lab turib kuladi.⁷⁹

Yuqoridagi she’rda oxirgi ikki misra muallifning mahoratini nechog‘lik yuksakligini ko‘rsatmoqda. Shu ikki misradagi tardi aks va tazod san’atlarining o‘rinli qo‘llanganini alohida ta’kidlash joizdir. Tardi aks “teskari qilib takrorlash” ma’nosini ifodalab, she’rning bиринчи misrasida kelgan ikki so‘z yoki so‘z birikmalarini keyingi misrada o‘rnini almashtirib qaytarishdan iborat she’riy san’atdir. Tazod esa “zid qo‘yish”, “qarshilantirish” ma’nolarini ifodalaydi. Shu so‘z bilan ataluvchi she’riy san’at baytda ma’no jihatdan o‘zaro zid, qarama - qarshi bo‘lgan so‘zlarni qo‘llab, tasirchan badiiy timsollar, lavhalar yaratishni nazarda tutadi. “Ajoyib qiz” she’rida bu san’atlarning ishlatalishi bosh qahramonning o‘zgacha, yagona va hech kimga o‘xshamas xarakter egasi ekanligini tasdiqlab bergen.

Nazmda ustoz-shogird an’analariga alohida e’tibor bilan qaraladi. Bunday qadriyat g‘azal mulkining sultoni–Navoiy davridan buyon hukm surmoqda. Bugungi kunda ham bu ajoyib an’ana davom etish bilan birga keng yoyilmoqda. Iqbol Mirzo ijodida ham bunga guvoh bo‘lishimiz, shubhasiz. Ijodkor shoirlilik maqomini anglagan holda, ulug‘ siymolar merosini chin ma’noda o‘z ong-shuuriga singdira olgan. O‘z faoliyatida haqiqiy ijod zahmatini tortgan darg‘alarning uslublariga ergashgan. Bayozida buyuk ustozlarning nomlarini keltirish orqali talmeh san’atidan foydalangan. “Talmeh “nazar solmoq” she’r yoki nasrda mashhur tarixiy shaxslar, afsonalar va adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilish.”⁸⁰

Fuzuliy jutf etib ketgan bir zamон,
Go‘zallar vafosizaldoqchi dedim.
Yoningda qolishga yo‘q edi imkon,
Men seni yodingda qolmoqchi edim.⁸¹

Yuqoridagi she’rda Fuzuliy nomi talmehgina bo‘lib qolmay, shoirning buyuk ustoz shaxsiga ta’rifi va bu zotga muallifning hurmat-ehtiromini belgisi bo‘lib kelgan.

⁷⁹ Iqbol Mirzo.Sizni kuylayman. Toshkent. -Sharq, 2007. 37-bet

⁸⁰ Anvar Hojiahmedov “She’riy san’atlarni bilasizmi” Sharq nashriyoti- 2001. 18-19-betlar

⁸¹ Iqbol Mirzo Sizni kuylayman.Toshkent.- Sharq, 2007. 3-bet

Shoir shaxsiyati bilan yaratgan obrazi bir butun bo‘lishida ijodning mazmun-mohiyati va mas’uliyati ahamiyatli. Dunyoga kelgan har bir asar ko‘chma ma’noda muallifning qalb parchasi hisoblanadi. Iqbol Mirzo ijodida sevgi, ishq-muhabbat yetakchi mavzulardan biridir. Uning mukammal namunalarida xalqchil til, jaydarilik va soddalik nafasi ufurib turadi. Shoirning “Tillo zanjir” she’rida “bilib-bilmaslikka olish”, ya’ni tajohuli orif san’atining ta’sirchanligini ko‘ramiz.

Mohitobonmisiz bulutga tutqun?

Yoki jayronmisiz burgutga tutqun?

Yoki soyning ermag-i-sumbulisiz?

Kulsangiz ham bunchalar qayg‘ulisiz?⁸²

She’rda yorning ta’rifi ajoyib tarzda ochib berilgan. “Mohitobon”, “jayron”, “sumbul” - barchasi yorning tasviridir. Muallif sevgilisining bu sifatlarini aniq va ravshan ko‘radi, ammo bilmaslikka olish orqali kechinmalarning mohiyatini kuchaytirishga harakat qiladi. She’riyatda bu vositalarni qo’llash orqali shoir kitobxonni tasvirlanayotgan kishining ichki olamiga olib kiradi, uning his-tuyg‘ulari bilan tanishtiradi. Bundan tashqari, kitobxonga ruhiy lazzat va orom bag‘ishlashni ham nazarda tutadi. Yuqorida qayd etilgan holatlar Iqbol Mirzoning metafora va badiiy san’atlardan foydalanishda mohir so‘z san’atkori ekanligini anglatadi. Iqbol Mirzo ijodi ummondir. Uning har bir she’ri shu ummon tubidagi qimmatbaho durdek she’r ixlosmandlarini asir qilib qo‘yadi.

“Toshkentda o‘tgan “Turkiston xalqlari mushoirasida” Iqbol Mirzo to‘lib - toshib she’r o‘qiganda Chingiz Aytmatov behad quvonib, uning she’rlariga yuksak baho bergani hammamizning yodimizda. G‘afur G‘ulom nomidagi bog‘da ulug‘ shoir haykalining ochilish marosimida Iqbol Mirzoning qisqa, ammo qo‘sinqay dilrabo so‘zlar ko‘plar qatori prezidentimizni ham to‘lqinlantirdi. O’shanda Islom Karimov yosh shoirni otalarcha bag‘riga bosib, qutlagan edi.”⁸³

Yuqoridagi ta’riflar Iqbol Mirzoning haqiqiy iste’dod egasi ekanligiga zarracha ham shubha qoldirmaydi. Shoirning ijod yo‘lidagi sobitqadamligini isbotlaydi. Badiiy tasvir vositalaridan foydalanishdagi originalligi esa uni Sharq olamiga tanitadi. Iqbol

⁸² Iqbol Mirzo Sizni kuylayman.Toshkent.-Sharq, 2007. 8-bet

⁸³ Umarali Normatov.Ijod sehri.Sharq, 2007. 144-bet

Mirzo ijodi ohori to'kilgan so'zlardan qochib, hayolat daryosining shamollarida kezib yurgan zarralarni mohirlik bilan bir umumiyl maydonga chaqiradi. Bugun esa uning ijodi davrlar silsilasidan omon o'tib, yangi davr bulog'i bilan sug'orilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiahmedov A. She'riy san'atlarni bilasizmi? Sharq, 2001.
2. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. Toshkent.- Sharq, 2007
3. Iqbol Mirzo. Ko'nglingda nima bor bilmayman. Sharq, 2020.
4. Normatov U. Ijod sehri. Sharq, 2007.

